

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 766

2022 yil 25 08



STRATEGIK BOSHQARUV
FANI SILLABUSI

Bilim sohasi:

Ta'lim sohasi:

Ta'lim yo'nalishi:

200 000- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

230 000 - Iqtisod

5230100- Iqtisod (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

5230200 – Menajment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi – 2022 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Muxitdinov.X.S. "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi professori
Eshev. A.S. "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi
Nazarova.G.U. – "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi assistenti
Aliyeva. M.F. – "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi stajyor – o'qituvchi

Fanning ishchi o'quv dasturi "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasining 2022 yil " " _____
dagi "№ _____" - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun
tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

 I.f.f.d.A.N.Raximov

Fanning ishchi o'quv dasturi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 2022y.)
va institut Uslubiy Kengashida (bayon № _____, 2022y.) muhokama etilgan va o'quv
jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

Kafedra mudiri

Turdiyev.Sh.

Qurbanov.A.

Raximov.A.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 6.Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-inizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bulishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
- 8.Клифф Баймен. Основы стратегического менеджмента. -М.: Банки и биржи, 2014. -357 с.
- 9.Yuldoshev N.K., Xodjamuratova G.Yu. Strategik menejment. O'quv-uslubiy majmua - T.:TDIU, 2018.- 217 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. www.ifmr.uz
4. www.zivonet.uz
5. www.management.ru
6. http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com/best-graduate-schools/top-humanities-schools/economics-rankings
7. schools / top-humanities-schools/economics-rankings
8. www.stiplan.ru - экономика и управление
- www.satback.ru - научные статьи и учебные материалы по экономике

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talabalar
Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlari ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki usulida yakuniy nazorat topshiriqlar Talabalar bilim O'zbekiston Respublikasi O'QMTY ning 2018 yil 9 avgustidagi 9-2018 – son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilim quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, faning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, faning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, faning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, faning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqsiz) baho baholanadi

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor – o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Frank Rothoemel Strategic Management: Concepts (2nd edition) Mc Graw- H: H Education 9 January 2014. USA. 528 p.
2. Michael A. H: H. Strategic Management: Competitiveness and Globalization - Concepts and Cases. South - Western College Pub. 2014. USA. 896 p.
3. Fred R. David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts & Cases. Pearson. 2014. USA. 696 p
4. Strategic Management concepts and cases. Arthur A. Thompson Jr. A.J Strickland. 2014. 778 p.
5. Yo'ldoshev N.Q. Strategic management. O'quv qo'llama. - T.: UDUY. 2014- 140 b.

Fan/modul kodi SMM336	O'quv yili 2022-2023	Semestr(lar) 5	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari - 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Strategik boshqaruv	72	108	180

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi O'qituvchilar	F.I.SH	Biznes va innovatsion menejment	Tel fon nomeri	e-mail
Ma'ruzachi	Muxitdinov Xudoyar Suyunovich Eshev Alibek Sobirovich Nazarova Gulruh Umarjonova	998916377727 998914568805 998999610008	xsmuxitdinov@q.mail.com alibek 8805@mail.ru gulruh.nazarova.85@b.k.ru	
Amaliy mashg'ulot	Nazarova Gulruh Umarjonova Aliyeva Musaffo Fayrat qizi	998999610008 998907220014	gulruh.nazarova.85@b.k.ru aliyevamusaffo@gmail.com	

I. Fanning mazmuni

O'quv fanning maqsadi va vazifasi

"Strategik boshqaruv" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda korxonalarda strategik boshqaruvni tashkil etish bosqichlari, iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishni ko'paytirishning eng zarur omillari va imkoniyatlarini aniqlay olish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari, ishtirok etish usullarini turli tarmoqlar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etishda qo'llash masalalari bo'yicha nazariy- amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga ishlab chiqarish korxonalarida strategik boshqaruvni tashkil qilish, "Strategik boshqaruv" fanining predmeti, vazifalari va mohiyati, kompaniya missiyasi va strategik qararlarni belgilash, strategik boshqarish maqsadi va uning turlari, strategiya yaratishning vazifalari, tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatning tahlili, kompaniya holatini tahlil qilish, kompaniyaning raqobat strategiyasini belgilovchi omillar, marketing strategiyasini mavjud vaziyatga moslashtirish, diversiyalangan kompaniyalarning strategik tahlili haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Strategik boshqaruv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

talaba:

Mazkur fan bo'yicha bakalavr:

- menejer;
- menejerklik faoliyati;
- strategik menejmentning usullari va tamoyillari;
- xizmatlar sohasida va korxonalarda strategik boshqaruvni tashkil etish bosqichlari *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi*;
- strategiya yaratishning vazifalari;
- strategiya yaratishda qo'llaniladigan amallar haqidagi *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- korxona strategiyasini rejalashtira olishi;
- marketing muhitini tahlil qila olishi;
- strategik faoliyatni tashkil qilish haqidagi *malakalarga ega bo'lishi kerak*;
- menejmentda tavakkalchilik;
- korxona strategiyasi va taktikasi tahlili;
- xizmat ko'rsatish sohalarining va korxonaning raqobatbardoshligini tahlil qila olishi

ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

- ma'ruzalar;
- interfoyl keys stadlar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar)
- guruhlarda bi ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bilan ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallar va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilish, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalar manlarning elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qitish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslardan foydalaniladi
Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit – modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ishlarning asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan quyidagi

shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabalar o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muommoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulot;
- masofaviy (distension) ta'lim
- referatlar yozish standart talabalarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi
- ilmiy maqola, anjumaniga ma'ruza tayyorlash.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Ishlab chiqarishni strategik boshqaruv jarayonida strategiyani mohiyati va o'rni
Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarni strategik boshqarish omillari

Strategik menejment nazariyasining asoslari
Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda rahbar strategiyasining o'rni

Mehnat resurslarini boshqarishda strategik menejmentning vazifalari

Marketing strategiyasini shakllantirishni boshqarish

Innovatsiyalarni qo'llashda strategik menejmentning tug'an o'rni

Strategik menejmentda korxona personalini boshqarish

Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligini oshirish omillari

Inson resurslarini strategik boshqarish

Sug'urta kompaniyalarini strategik boshqarish

Korxona va tashkilotlarda inson omili ta'sirini boshqarish strategiyasi

Korxonalarda marketing faoliyatini rivojlantirish strategiyasi

O'zbekistonda tadbirkorlikni strategik rivojlantirish va boshqarish

Modernizatsiya sharoitida maxsus strategiyalardan foydalanish

Modernizatsiya sharoitida maxsus strategiyalardan foydalanish

Firma faoliyatini boshqaruv strategiyalari

Strategiyani ishlab chiqish uslublari

Strategik menejmentning besh vazifasi

Korporatsiyalarda xodimlarni boshqarishning xorijiy tajribasi

Strategik boshqarishning maqsadi va uning turlari

Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarni belgilash

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

Fan bo'yicha kurs ishi. Ishchi-oquv rejada kurs ishi rejalashtirilgan.

Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulot)

Nö	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1	"Strategik boshqaruv" fanining predmeti va boshqaruv jarayoni	Strategiya tushunchasi, uning mazmuni. Strategiyani reja-dan farqi. Firmani boshqarish vazifalari, ularning asosiy turlari. Firma kompaniya strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha menejrlarning vazifalari. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarini belgilash. Kompaniya strategiyasining asosiy savollari. Strategik boshqarish maqsadi. Maqsadlarning turlari, qisqa muddatli, uzoq muddatli, moliyaviy strategik. Strategiyani belgilashga ta'sir etuvchi omillar: ichki omillar, tashqi omillar. Strategiyaga aniqliklar, o'zgarishlar kiritish. Strategiyani baholash uchun qo'yiladigan savollar. Strategiyani amalga oshirish bo'yicha ma'muriyatning vazifalari. Strategik boshqarishning belgi va vazifasi. Strategiyani amalga oshirishda ijrochi direktorining o'rnini. Kompaniya strategiyasini belgilashda prezidentning o'rnini va vazifalari. Viceprezidentlarning vazifalari. Turli darajadagi boshqaruvchilar va ularning vazifalari. Rejalashtirish bo'limining va uning vazifalari.	2
2	Strategiya yaratishning vazifalari	Korxona faoliyati yo'nalishlarini belgilash omillar. Kompaniya missiyasi, strategik ko'ra bilish, faoliyat yo'nalishini tanlash o'rtasidagi bog'liqlik. Missiyani vazifalarga aylantirish. Strategik boshqarish tamoyillari. Strategiyani tashkiliy darajalari. Korporativ strategiya. Ishbop strategiya. Funktsional strategiya. Amaliy strategiya. Strategiya turlarining o'zaro bog'liqligi. Strategiyani ishlab chiqishga yondoshuv turlari. Bosh strategik yondoshuv. Vakolatlarni boshqarishga o'tkazish. Birgalikda kolloborasion yondoshuv. Tashabbuskor yondoshuv. Strategiya yaratishda missiya, maqsadlar, strategiyalar birligi. G'olib strategiya mezonlari. Muvofiq kelish darajasi. Raqobat kurashishda ustunlik.	2

8	Diversifikatsiyalangan kompaniyalarning strategik taxlili	diversifikatsiyalangan strategiyalari. Qisqartirish va tugatish strategiyalari. Qayta tarkiblashtirish, qayta tiklash va rejamkorlik strategiyalari. Qayta tarkiblashga ehtiyoj tug'ulish xolatlari. Diversifikatsiyalashning ko'p millatli strategiyalari. Millatlararo kompaniyalar. Diversifikatsiyalangan millatlararo kompaniyalar.	6
	JAMI	Kompaniyani mavjud strategiyasi va faoliyatini baholash. Diversifikatsiyalash darajasi va firma portfeli. Kompaniya faoliyatining miqyosi. Korporativ boshqaruv samaradorligi. Diversifikatsiyalangan kompaniya faoliyatini baholash. Xo'jalik faoliyati matritsasi. Matritsaning juft ko'rsatkichlari. "O'sish/ulush" matritsasi, "tarmoqning jozibadorligi/raqobat mavqei" matritsasi, tarmoqning xayotiy sikli matritsasi. Ishbop faollik portfeli matritsasi. "Murakkab bolalar", "Yulduzlar", "Sog'in sigirlar", "Itlar" kvadrantlari. Portfelning xozirgi va O'ra korxonalar evolyusiyasi matritsasi. Strategik moslik taxlili. Korxonalar investitsiya qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirish. Diversifikatsiyalangan korporatsiya strategiyasini aniqlash. Korporativ strategiyani ishlab chiqish. Ishchanlik faolligi mezonlari. Tarmoq jozibadorligini baholash yo'nalishlari. Xo'jalik bo'limlarining kompaniya biznesiga mos kelish darajasi. Kompaniya portfelinin korxonalar, tarmoqlar bo'yicha taxlili. Taxlii natijalariga ko'ra tashkiliy xulosalar yasash. Kompaniya xo'jalik portfelinin qayta ko'rib chiqish.	34

Nö	Mavzular	Soat
1	"Strategik meneciment" fanining predmeti va boshqaruv jarayoni	2
2	Strategiya yaratishning vazifalari	2
3	Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatchilik taxlili	4
4	Kompaniya avxolining taxlili	6
5	Strategiya va raqobatchilik ustunligi	6
6	Marketing strategiyasini mavjud vaziyatga moslashtirish	6
7	Diversifikatsiyalashning korporativ strategiyalari	6
8	Diversifikatsiyalangan kompaniyalarning strategik taxlili	6
	JAMI	38

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor - o'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustakamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va rezislarini chop etish orqali talabalar bilimni oshirish, masalalar echish, mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

3	Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatning tahlili	Tarmoqlar va ularning iqtisodiy tavsiflari. Tarmoqdagi raqobat va rivojlanish istiqbollari. Texnologik taraqqiyot sur'atlari. Tarmoq bozorining hajmi. Raqobat miqyoslari. Bozorning o'sish sur'atlari. Raqobatchilar tarifi. Raqobatchilarning moliyaviy imkoniyatlari. Tarmoqdagi integratsion jarayon yo'nalishi. Texnologik o'zgarishlar. Raqobatning beshita kuch modeli. Raqobatchilar strategiyasini aniqlash. Raqoblarning navbatdagi qadimini oldindan ko'ra bilish. Raqoblarning maqsadlari va strategiyalarini turkumlash. Muvaffaqiyatning kalit omillari. Tarmoqdagi vaziyatni umumiy baxolash.
4	Kompaniya axvolidagi taxlil	Kompaniya axvolidagi taxlil qilish uslubiyoti. Taxlil uchun qo'yiladigan savollar. Taxlil vositalari: SWOT - taxlil, kadriyatlar zanjiri taxlil, xarajatlar taxlil, raqobatchilik baxosi. SWOT- kuch, zaiflik, imkoniyatlar, taxdid so'zlarining yig'indisi. Strategiyani amalga oshirish taxlil. Taxlil qilinadigan asosiy ko'rsatkichlar. Kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari. Kuchli va zaiflik ularning mazmuni va ko'rsatkichlari. Kuch va zaiflikning umumiy natijalarini ifodalash. Korxona xarajatlari raqobatchilikdoshligini baxolash. Qadriyatlar zanjiri. Asosiy faoliyatdagi kadriyatlar zanjiri. Yordamchi faoliyatdagi kadriyatlar zanjiri. Muvaffaqiyatning kalit omillari. Muvaffaqiyatning kalit omillari ruxsatini tuzish tartibi. Muammolarni aniqlash va ifodalash.
5	Strategiya va raqobatchilik ustunligi	Kompaniyaning raqobat strategiyasini belgilovchi omillar. Raqobat strategiyasining boshqa strategiyalar bilan bog'liqligi. Raqobat kurashiga yondoshuvlar. Xarajatlar bo'yicha ilg'orlik strategiyasi. Keng tabaqalashtirish strategiyasi. Optimal xarajatlar strategiyasi. Fokuslanish strategiyasi. Ifodalangan strategiya. Raqobat ustunligiga erishish yo'llari. Xujumkor strategiya. Xujumkor strategiyaning asosiy turlari. Raqobat ustunligini himoya qilish yo'llari. Mudofiza strategiyalarining turlari. Vertikal integratsiya. Integratsiya yo'nalishini tanlash. "Qaldirg'och" korxonaning yutuqlari va muammolari.

6	Firma strategiyasini mavjud vaziyatga ko'niktirish. Unga ta'sir etuvchi omillar. Ichki va tashqi omillar. Tarmoq axvolidagi ta'riflovchi omillar. Raqobat shartlarini tavsiflovchi omillar. Tarmoqdagi vaziyatning beshita klassik varianti. Yangi va tez o'sayotgan tarmoqlardagi raqobat. Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlardagi raqobat. Depsinish yoki tushkunlik xolatida bo'lgan tarmoqlardagi raqobat. Bo'lib tashlangan tarmoqlardagi raqobat. Xalqaro bozorlardagi raqobat. Firma raqobat variantlari. Bozor y etakchilari. Ikkinchi o'rindagi firmalar. Zaif yoki talofat ko'rgan firmalar. Yangi tarmoq tushunchasi. Yangi tarmoq firmalar oldiga qo'yadigan muammolar. Yangi tarmoqda tavsiya etiladigan strategiyalar. Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlarda qo'llaniladigan raqobat strategiyalari. O'sish sur'ati past bo'lgan tarmoqlarda qo'llaniladigan raqobat strategiyalari. Bo'lib tashlangan, tarqoq tarmoqlarning belgilari. Bunday tarmoqlardagi raqobat xususiyatlari. Tarqoq tarmoqlarda qo'llaniladigan raqobat strategiyalari. Xalqaro bozorlarga chiqish sabablari. Xalqaro operatsiyalarning xususiyatlari. Xalqaro raqobat shakllari. Global va ko'p millatli raqobat. Global raqobat kelib chiqishining shartlari. Xalqaro bozorga chiqishning istiqbollari. Ikkinchi o'rinda bulgan firmalarning bozordagi mavqei. Ularning xususiyatlari. Bunday firmalar qo'llaydigan raqobat strategiyalari. Aylanna xujum strategiyasi. Himoya va mustaxkamlash strategiyasi. Tezlik bilan chekinish strategiyasi. "Xosil yig'ish strategiyasi"	6	
7	Diversifikatsiyalashning korporativ strategiyalari	Kompaniyaning rivojlanish bosqichlari. Boshlang'ich bosqich belgilari. Geografik ekspansiya bosqichi. Maxalliy bozordan xududiy-milliy va xalqaro bozorlarga chiqish. Tor ixtisoslashish va uning qulayliklari. Tor ixtisoslashishning kamchiliklari va xatari jixatlari. Diversifikatsiyalashga undovchi omillar. "Bozorni o'sish sur'atlari/raqobatchilik mavqei" matrisasi. Diversifikatsiyalashning maqsadi. 2+2=5 samarasi. Diversifikatsiyalash uchun tarmoq tanlash mezonlari. Diversifikatsiyalash mezonlari. Kirim xarajatlari mezonlari. Qo'shimcha manfaatlar mezonlari. Yangi tarmoqqa kirish strategiyalari. "Yutib yuborish" strategiyasi. Yangi kompaniya tuzish strategiyasi. Qo'shma korxona tuzish strategiyasi. Turdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash strategiyalari va uning afzalliklari. Turdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash shartlari. Noturdosh tarmoqlarga	6